

---

## Mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining samarasi

Inson avvalo oila bag'rida unib-o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida - mahalla-ko'yda, ta'lim muassasalarida sayqal topadi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mahallalarda faoliyat yuritayotgan yettilik tomonidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishni tashkil etish yo'lga quyildi.

Ta'lim-tarbiya haqida gap ketganda, mahallaning roli va ta'siri to'g'risida to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bejiz «Mahalla — ham ota, ham ona» deyilmagan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar aynan mahalla muhitida rivojlangan. Bular esa yosh avlodning ongu tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasida mahallaning o'rnini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Bugun Rishton tumanidagi 38-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida Quyi Avazboy MFY profilaktika inspektori Shukurullo Ergashev ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda muassasa tarbiyalanuvchilari tomonidan sahna ko'rinishi namoyish etilib, jajji bolajonlarning qiziqarli savollariga javob berdi. Ushbu uchrashuv bolajonlarlar olam-olam taassurotga ega bo'lishdi.

2024-07-17 16:11:47